



TARIXIY TADQIQOTLAR
Ilmiy jurnali

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

TOSHKENT-2024

TARIXIY TADQIQOTLAR
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Bosh muharrir:
Главный редактор:
Chief Editor:
Suleymanov Rustam Xamidovich
tarix fanlari doktori, professor
O'zbekiston Milliy universiteti

Bosh muharrir o'rinbosori:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:
Shakirov Ilyas Raximzyanovich
t.f.f.d., (PhD)
O'zbekiston Milliy universiteti

TAHRIR HAY'ATI
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich
tarix fanlari doktori, professor, Akademik
O'zbekiston Milliy universiteti

Muminov Alisher Gaffarovich
Siyosiy fanlari doktori, professor
O'zbekiston Milliy universiteti

Zuyev Andrey Sergeyevich
tarix fanlari doktori, professor
Novosibirsk Davlat universiteti

Yunusova Xurshida Erkinovna
tarix fanlari doktori, professor
O'zbekiston Milliy universiteti

Kobzeva Olga Petrovna
tarix fanlari doktori, professor
O'zbekiston Milliy universiteti

Xoliqulov Axmad Baymaxamatovich
tarix fanlari doktori, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Gabrielyan Sofya Ivanovna
tarix fanlari doktori, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Ubaydullayeva Barno Mashrabjonova
tarix fanlari doktori, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Ochildiyev Fayzulla Bobokulovich
tarix fanlari doktori, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Siddikov Ravshan Berdimuratovich
tarix fanlari nomzodi, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Narbekov Abdikamil Vafayevich
tarix fanlari nomzodi, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Xoliqulova Shaxnoza Boymuxammatovna
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Navoiy Davlat pedagogika instituti

Tuxtabekov Kozimbek Azimbekovich
tarix fanlari nomzodi, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Bababekov Akbar Davurbayevich
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston Milliy universiteti

Zamonov Akbar Turginovich
tarix fanlari nomzodi, professor
Toshkent xalqaro Kimyo universiteti

Kandaxarov Anvarjon Xasanovich
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Normurodov Dilmurod Raxmatullayevich
tarix fanlari nomzodi, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Alinazarova Dildora Valisherovna
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston Milliy universiteti

Tog'ayev Jasur Erkinovich
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston Milliy universiteti

O'sarov Umid Abdumavlyanovich
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston Milliy universiteti

Abdulayeva Nigora Sanjarovna
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston Davlat Jaxon tillari universiteti

Egamberdiyeva Guzal Akramjonovna
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston Milliy universiteti

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет Национального
Университета Узбекистана имени Мирзо
Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/> ; E-mail:
I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib
Faculty of history of the National university of
Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/> ; E-mail:
I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

MUNDARIJA/СОДЕРЖАНИЕ/CONTENT

1. Abdullayev Utkir Ismailovich., Matnazarova Mohira O'ktamovna KO'CHMANCHI CHORVADORLARDA HARBIY SAN'ATNING TARAQQIY ETISH BOSQICHLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLAR	4
2. Bababekov Akbar Davurbayevich O'ZBEK OILASIDA YER VA SUV BILAN BOG'LIQ EKOLOGIK TARBIYA	12
3. Bahranov Sherzod Tashtursunovich., Sirliyev Erkin Nazarovich УСТАНОВЛЕНИЕ И РАЗВИТИЕ ТОРГОВЫХ ОТНОШЕНИЙ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ С ВОСТОЧНЫМ ТУРКЕСТАНОМ ЧЕРЕЗ ФЕРГАНСКУЮ ДОЛИНУ В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКОВ	26
4. Kandaxarov Anvarjon Xasanovich KARMANA ME'MORIY OBIDALARI TARIXI	44
5. Matyakubova Muborak Madrimovna., Atamuratova Dilafruz Rashidovna O'ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING TARIXIY TENDENSIYALARI	60
6. Narbekov Abdikamil Vafaevich YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA DINING TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI	70
7. Normurodov Dilmurod Raxmatullayevich TOSHKENT VOHASINING BURGULIK MADANIYATI HUSUSIDA	83
8. Ochildiyev Fayzullo Babakulovich XIX ASRNING IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA IJTIMOY MUNOSABATLAR VA SOLIQ TURLARI	100
9. Smesova Katerina Aleksandrovna ИСТОРИЯ КНИГОПЕЧАТАНИЯ И КНИЖНОГО ДЕЛА В ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ	112
10. Ernazarov Shermuxammad Eshbekovich TARIXIY TARAQQIYOT VA MILLIY G'OYA	126
11. Egamberdiyeva Guzal Akramjonovna ШЕЛКОВЫЙ ПУТЬ - КАК МЕЖДУНАРОДНЫЙ ТУРИСТИЧЕСКИЙ БРЕНД	143
12. Yusupov Axmedjon Shonazarovich OROLBO'YI KO'CHMANCHI SAK-MASSAGET QABILALARINING DINIY QARASHLARI VA E'TIQODLARI	155

Ochildiyev F. B.

Tarix fanlari doktori, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti
fayzullaochondiev@gmail.com

XIX ASRNING IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA IJTIMOYIY MUNOSABATLAR VA SOLIQ TURLARI

ANNOTATSIYA

XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr asr boshlarida Buxoro amirligida jumladan, Sharqiy Buxorodagi ijtimoiy munosabatlar va soliq turlari to'g'risidagi ma'lumotlar atroflicha tahlil qilingan. Mamlakatning himoyasiz oddiy fuqarolari mahalliy amaldorlarning doimiy zulmi ostida bo'lgani, aholining badavlat qatlami va o'ziga to'q dehqonlar o'z yerlarini kengaytirish, ko'proq foyda olish maqsadida o'z yerlariga ishlov berishga qurbi yetmagan nochor oilalar va yetim-yesirlarning yerlarini arzon narxlarda sotib olishi, ularning haq-huquqlarini poymol qilishi, ba'zi hollarda shariat ulamolari o'z manfaatlari yo'lida har qanday pastkashliklardan ham qaytishmaganligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro, amirlik, ijtimoiy, soliqlar, to'lovlar, mahalliy, adolatsizlik, beklik, amlokдор.

Очилдиев Ф. Б.

Доктор исторических наук, доцент
Национальный университет Узбекистана
fayzullaochondiev@gmail.com

СОЦИАЛЬНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ВИДЫ НАЛОГОВ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье были подробно проанализированы данные о социальных отношениях и видах налогов в Бухарском эмирате, в том числе в Восточной Бухаре во второй половине XIX - начале XX вв.

В статье утверждается, что незащищенные простые граждане страны постоянно подвергались притеснениям со стороны местных чиновников, богатые слои населения и самодостаточные крестьяне расширяли свои земли,

и чтобы получить больше прибыли, они покупали по низким ценам земли беспомощных семей и сирот нарушая их права, которые не могли позволить себе обрабатывать свои земли.

Ключевые слова: Бухара, эмирате, социальных, налогов, платежи, местных, несправедливость, бекство, амлякство.

Ochildiyev F. B.

DSc, associate professor

National University of Uzbekistan

fayzullaovich@gmail.com

SOCIAL RELATIONS AND TYPES OF TAXES IN THE BUKHARA EMIRATE IN THE SECOND HALF OF THE XIX – EARLY XX CENTURIES

ABSTRACT

The data on social relations and types of taxes in the Bukhara Emirate, including in Eastern Bukhara in the second half of the XIX – early XX centuries were analyzed in detail. It was argued that the country's defenseless ordinary citizens were constantly harassed by local officials, the rich and self-sufficient peasants expanded their lands, and in order to get more profit, they bought at low prices the land of helpless families and orphans, violating their rights that they could not afford cultivate their land.

Key words: Bukhara, emirate, social, taxes, payments, local, injustice, beklík, amlakdor.

KIRISH

XIX asrning ikkinchi yarmi–XX asr boshlarida Buxoro amirligi 200 ming km² maydonga ega hududni egallab, unda yashagan aholining soni 2 mln dan oshiq edi. O‘troq aholi asosan sersuv yoki suv manbalariga boy vodiylarda yashab, dehqonchilik bilan shug‘ullangan hamda qishloq xo‘jaligi ekinlari va bog‘dorchilik mahsulotlari yetishtirib kun kechirgan. Vohalar va ularga tutash hududlarda yarim o‘troq va ko‘chmanchi aholi istiqomat qilib, ularning asosiy mashg‘ulotiga dehqonchilik bilan birga chorva mahsulotlari yetishtirish ham kirgan.

Yevropa va AQShda qishloq xo'jaligi yangi kashfiyotlar va ixtirolar bois yuqori darajada taraqqiy qilayotgan bir sharoitda Turkiston o'lkasidagi xonliklar, jumladan, Buxoro amirligi xalq xo'jaligida ishlab chiqarishning eski usullari qo'llab kelingan. Bu esa dehqonlar, chorvadorlar va hatto hunarmandlarning ham yashash sharoiti pastligidan dalolat berardi. XIX asrning ikkinchi yarmi–XX asr boshlarida amirlik aholisining turmush darajasi qoloqligiga yerga egalik munosabatlarining eski shakllari, soliq va jarimalar ko'pligi, davlat amaldorlari, ma'muriy idora apparati vakillarining ilmiy-texnik yangiliklar va islohotlarga nisbatan qiziqishi hamda rag'batlari yo'qligi, ijtimoiy-iqtisodiy sohada har qanday yangilikka to'siqlar qo'yilishi hamda konservativ tafakkur sabab bo'lib kelayotgan edi.

Mamlakatdagi turli ijtimoiy tabaqa va qatlamlar bir-biridan farq qilgan. Ular bir-birlaridan jamiyatda tutgan mavqei, yer-mulkka bo'lgan egalik munosabati va nasl-nasabiga ko'ra ham ajralib turganlar. Markaziy va mahalliy hokimiyat vakillari, harbiy amaldorlar hamda din peshvolari aholining yuqori tabaqasini tashkil qilgan. Ular keng ijtimoiy huquq va imtiyozlarga ega edi. Aholining davlat xazinasini to'ldiruvchi asosiy qismi soliq to'lovchi va turli majburiyatlarni ado etuvchi dehqon, hunarmand, chorvador va savdogarlardan iborat bo'lgan. Dehqonlar o'zi bir nechta ijtimoiy qatlamlarga bo'lingan va ular safiga muayyan xo'jalik va yer egalaridan tortib, yersiz qishloq aholi vakillari kirgan.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib Buxoro amirligida 50 ga yaqin soliq va to'lovlar joriy etilgan bo'lib, aholi bu soliqlarni to'lashga majbur edi. Zakoti chakana, qo'sh puli, yaksara, osiyo puli, objuvoz puli, tanob puli, alaf puli kabi soliqlarni to'lash majburiyati Buxoro hukumati tomonidan rasman belgilanmagan va aniq miqdori ham ko'rsatilmagan. Lekin mahalliy boshqaruv organlari ya'ni bek va amlodkorlar o'zlarining foydasini ko'zlab qo'shimcha to'lovlarni joriy qilib aholidan to'lashni majbur qilishgan.

Maqolada manbalar tahlili, ilmiy qarashlar va yondashuvlarning qiyosiytahlili, tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirish va xolislik tamoyili usullaridan foydalanilgan. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligida

ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va soliq turlari to'g'risida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Ochildiyev F., Xakimova K.Z., Madjlisov A., Stetsenko I.A., Muxsinova K.Z., Xamroyev M. va boshqalar XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar to'g'sida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Shuningdek, Azizov I.SH Sobolev L.N. Chexovich O.D. Xoroshxin A.P. Semenov A.A. Iskandarov B.I. va boshqalar Buxoro amirligida joriy qilingan soliq turlari va mahalliy aholining soliq siyosatiga qarshi norozilik chiqishlari borasida ilmiy izlanishlar olib borishgan.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

XIX asrning oxiriga kelib, Buxoro amirligida tovar-pul munosabatlarining muomalaga kirib kelishi aholining qishloq xo'jaligini izdan chiqardi. Shuningdek, dehqonlarning turmush tarzi va yashash sharoitining og'irlashib borishiga olib keldi. Amirlikda ko'pchilik dehqonlarning o'z yerlariga ishlov berish va urug' sotib olishga qurbi yetmasdi. Bu davrda Buxoro amirligida sudxo'rlik bilan shug'ullanuvchi boylar ko'payib bordi. Natijada, kambag'al dehqonlar yer maydonlariga ishlov berish uchun so'dxo'rlarga murojat qilishga to'g'ri kelgan. Sudxo'r dehqonlarga mehnat qurollar, urug' vayerga ishlov berish uchun qo'shga qo'shiladigan ot, eshak va ho'kkizlarini katta foiz hisobiga ijaraga berishgan. Ijaraga olingan buyum va jonivorlar har doim ham dehqonlarga foyda keltirmagan. Agar dehqonlar olgan qarzi yoki ijara pulini ko'rsatilgan vaqtda to'lay olmasa o'z yeridan ajralib, sudxo'rga bir umrga qaram bo'lib qolgan holatlar ham uchrab turgan.

Islom jamiyatida sudxo'rlik shar'an taqiqlangan bo'lsa-da, bunday amallarga turli hududlarda turli shaxslar tomonidan qo'l urilgan. Sudxo'rlik kishilar o'rtasidagi qarz oldi-berdisi bilan bog'liq jarayon bo'lib, unga ko'ra qarz oluvchi qarz beruvchiga olgan qarzi evaziga ma'lum muddatda ma'lum miqdorda pul – foiz to'laydi[1]. Bunda qarz oluvchi undan foyda ko'rish-ko'rmasligidan qat'i nazar, qarzni qaytarish barobarida foiz to'lashga majbur bo'ladi. Sudning ma'nosi foyda bo'lib, islomda bu ribo[2] deyiladi, shunga ko'ra sudxo'rlik va riboxo'rlik

o‘zaro sinonim tushunchalar hisoblanadi va qarzga berilgan moldan yoki ziyoda narsa hisobidan amalda hech nima hisobiga boyish yoki foyda ko‘rishni anglatadi.

Sudxo‘rlik islomda qoralangan bo‘lishiga va mustahib yoxud raislar tomonidan qattiq nazorat qilinsa-da, bu salbiy holatning musulmonlar orasida mavjudligi kishini taajjublantiradi. Buxoroda ilgari sudxo‘rlik bilan yahudiylar shug‘ullanib kelishgan. Keyinchalik rus banklari o‘lkaga kirib kelishi natijasida, banklar sudxo‘rlik bilan metropoliya qonunlari doirasida oshkora shug‘ullana boshladilar. Shu tariqa Rossiya banklari ta’sirida yoki yahudiylar va boshqa g‘ayridinlarning islomga zid odatlari Buxoro amirligi hududida tarqalganligi musulmonlar orasidagi mana shunday munosabatlar shakllanishiga olib kelgan bo‘lishi ehtimoldan yiroq emas.

Mohiyatan mulkni sotib olish va uni qayta sotishdan olinadigan foyda bilan sudxo‘rlik butunlay boshqa-boshqa tushunchalar hisoblanadi va ularning shar’iy hukmi ham mutlaqo farqlanadi. Biroq ayrim tadqiqotlarda mazkur holat o‘ziga to‘q mahalliy musulmon shaxslarning sudxo‘rlik faoliyati sifatida talqin qilingan. Xususan, A.Madjlisovning ishida shunday faktlarga duch kelish mumkin. Unga ko‘ra, 1890 yilda sarmoyador Mirzo Salim muftiy sudxo‘rlik bilan shug‘ullanib, Hisor bekligi hududidan ko‘plab uy-joy va yer maydonlarini arzon narxlarda xarid qilgan. Misol uchun, Burxon qizi Marziyadan 1 tanob yerni 27 tangaga, Mulla Shayx o‘g‘li Sharifdan esa 1 chorak yerni 12 tangaga, shu yilning o‘zida Mirzo Salim qozi Muhammad guvohligida 6 chorak yerni 750 tangaga, Mirza Aziz guvohligida esa bitta sholi oqlaydigan tegirmonni 15 tangaga sotib olgan[3].

Amirlikning Sharqiy hududi–Qorateginda istiqomat qilgan Muhammad Naimboy va Imomboyilar davlat yerlarini kam yerli dehqonlarga ijaraga berish bilan mashg‘ul bo‘lganlar. Ular yerlarni oldi-sotdi qilish ortidan foyda chiqarishni o‘zlariga kasb qilib olganlar. Masalan, Naimboy 7 botmon yerni 5600 tangaga olib, uni 15960 tangaga sotgan hamda undan 10360 tanga sof foyda ko‘rgan[4]. Yirik yer egalari va mahalliy amaldorlar lalmi yerlar oldi-sotdisi bilan ham shug‘ullanishgan. 1913 yili Sarijo‘y bekligida yashovchi Abdulhay o‘g‘li Ashur hech qanday hujjatlarsiz Xufar qishlog‘idagi davlatga tegishli bir qancha lalmi

yerlarni Murod ismli dehqonga sotib yuborgan. Bunga o'xshash holatlarni deyarli barcha beklklarda uchratish mumkin. G'uzor bekligida yashovchi Yoqubbiy 1914 yili Eshonqul boyga 15 man[5] lalmi yerni 600 tangaga sotgan. Shu yilning o'zida Eshonqul boy yana Yoqubbiyning 10 man lalmi va sug'oriladigan yerini 2000 tangaga xarid qiladi. Shuningdek, u Rahmonqul boydan 2 man yerni 1500 tangaga, Cho'li boydan 3 man yerni 6000 tangaga sotib oladi[6].

XIX oxiri–XX asr boshlarida Buxoro amirligida qarindosh-urug'lar o'rtasida tez-tez meros talashishlar sodir bo'lib turgan. Yer-suv va boshqa boyliklar hamda mol-mulklar er-xotinga tegishli hisoblanib, otadan bolaga meros qilib berilar edi. Shuningdek, shariat qonunlariga muvofiq uning qarindoshiga yoki boshqa begona kishiga ham berilishi belgilangan. Agar marhumning farzandi bo'lsa, uning onasi merosning $\frac{1}{6}$ qismiga, farzandi bo'lmasa, $\frac{1}{3}$ qismiga egalik qilgan. Bundan tashqari, merosning bir qismiga marhumning amakisi, tog'asi, ammalari va ularning farzandlari ham da'vogar bo'lishi mumkin edi[7].

Islom qonunlarida meros taqsimoti masalasi marhumning bemorligi va o'limi bilan bog'liq barcha xarajatlar, jumladan o'lgan shaxsning qarzlari va boshqa majburiyatlari qoplangandan so'ng amalga oshiriladi. Shaxsning barcha farzandlari, ular qaysi xotinidan tug'ilganidan qat'i nazar, asosiy merosxo'rlar sanaladi. Hatto doimiy birga turmagan ayolidan tug'ilgan farzandi ham merosxo'rlikda teng va baravar huquqqa egadir. Agar meros qoldiruvchi shaxs boshqa birovni bolasini farzandlikka qabul qilgan bo'lsa, u holda mazkur farzand merosxo'r bo'la olmaydi. Merosga qolgan barcha ko'chmas, ko'char va boshqa mol-mulklar merosxo'rlarga taqsimot uchun ochiladi hamda bu narsani bo'lishni birinchi bo'lib qozi hal qiladi. Ko'chmas mulklar noqila, mol deyilgan va ularga asosan yer, bino, yerda o'sib turgan daraxtlar kiradi, ko'char mulkka esa g'ayri noqila mulklar kirgan.

1898 yilda Buxoro shahri Tog'band mavzesida joylashgan Usto Rafiqqa tegishli uy uning o'g'illari Abdurahim, Abduhalim, Abdulvosiy va Qilichboylar o'rtasida teng taqsimlangan. Shuningdek, Muhammad Zarifboyga tegishli bo'lgan 5 500 tanga hisobidagi turar joy uning xotini va ikki o'g'liga bo'lib berilgan[8].

Mulk egasi yer va uy-joyini hamda boshqa ko‘rinishdagi mol-mulkklarini farzandlari yoki xotinidan tashqari birona qarindoshiga ham vasiyat qilib qoldirishi mumkin edi. Masalan, Boysun bekligida O‘zbek hoji o‘g‘li Ziyovuddin qarindoshi Yuldoshxo‘jaga 2,5 tanob bog‘, 4 man lalmi yer, uy-joyi, 1 ta ho‘kiz, 2 ta eshak, 1 ta ot va 1 ta sigirini meros qilib qoldirgani ma’lum. 1823 yilda Mulla Qalandar o‘g‘li Mulla Fayzi tomonidan qozi ishtirokida rasmiylashtirilgan hujjatda u o‘lganidan so‘ng quli Boltaqulni ozod qilib, unga merosining 1/3 qismini berish vasiyat qilingan[9]. Albatta, mulk egasining xohishi va vasiyatidan qat’i nazar, uning vafotidan keyin mol-mulki merosxo‘rlar o‘rtasida shariat qoidalariga muvofiq taqsimlangan, bu o‘rinda shariatga zid vasiyat inobatga olinmagan, faqat o‘zi tirikligida mulk qilib berilgan bo‘lsa, shundagina marhumning irodasi qonun kuchiga ega bo‘lganligini esda tutmoq lozim.

Soliq tizimi, ya’ni soliq turlari, miqdori, soliqlarni yig‘ish, taqsimlash va ulardan foydalanish mamlakat iqtisodiy hayotida muhim o‘rin tutgan. Shu jihatdan olganda Buxoro amirligida amalda bo‘lib kelgan soliq tizimi tarixini o‘rganish XIX asrning oxiri–XX asr boshlarida O‘rta Osiyoda ijtimoiy-iqtisodiy hayot ko‘rsatkichlarini aniqlashda ahamiyatlidir. Buxoro amirligida, barcha islom mamlakatlarida bo‘lganidek, shariat tomonidan belgilangan soliqlar –xiroj, zakot, boj, aminona, jiz’ya kabi soliq turlari markaziy hukumat xazinasini to‘ldiruvchi asosiy manba hisoblangan.

XIX asrning ikkinchi yarmi–XX asr boshlariga kelib amirlikda yashovchi aholi 50 dan ortiq soliq va qo‘shimcha to‘lovlarni to‘lashga majbur bo‘lgan(10(. Hukumat tomonidan joriy qilingan soliqlardan tashqari, mahalliy amaldorlar, bek va amlodkorlar chorvador, hunarmand, dehqon va savdogarlarni qo‘shimcha to‘lovlarni to‘lashga majbur qilishgan. Qo‘shimcha to‘lovlar amirlikda aholidan bir xil tartibda yig‘ilmagan ular hududlarga qarab turli miqdorda undirilgan.

Sharqiy Buxoro bekliliklarida aholidan yig‘ib olinadigan soliq va to‘lovlar G‘arbiy Buxorodagi bekliliklarga nisbatan farqli jihatlari ham uchrab turgan. Mahalliy amaldorlar doimiy ravishda shariat qonunlarini qo‘pol ravishda buzib unga deyarli amal qilishmagan. Buxoro hukumati tomonidan belgilab qo‘yilgan

solliqlardan tashqari, bek va amlokdorlar tomonidan ham bir qancha qo'shimcha to'lovlarni joriy qilishib, charvodor, dehqon, savdogar va hunarmandlardan majburan to'lashni talab qilganlar. Sharqiy Buxorodagi bekliliklarda ko'proq qo'shimcha soliq va to'lov turlari joriy qilinib aholidan yig'ib olingan. G'arbiy Buxoro bekliliklarida qo'shimcha to'lovlar nisbatan qamroq joriy qilingan.

XIX asrning oxirida mamlakatda ayrim soliqlarning miqdori sezilarli darajada ko'tariladi. Masalan, bu davrda xiroj solig'i 40 foizgacha oshib aholidan yig'ib olingan[11]. Mamlakatda xiroj –solig'i ham asosiy soliq turlaridan biri hisoblangan. Bu bo'yicha o'tgan asr va istiqlool yillarida ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Tadqiqotlar tahlili amirlik hududida xiroj solig'i joylarga qarab turli xil ko'rinishda yig'ib olinganligini ko'rsatadi. L.N. Sobolev[12] va A.P.Xoroshxinlar[13] Zarafshon vohasida hosilning 1/3 qismidan 1/10 qismigacha, A.L.Kun esa Shahrisabz bekligida hosilning 1/3 qismidan 1/4 qismigacha[14], B.I.Iskandarov Sharqiy Buxoroda hosilning 1/5 qismidan 1/8 qismigacha[15] xiroj solig'i olinganligini ta'kidlaydi. Arxiv manbalarida Sharqiy Buxoroda shariat qonunlari bo'yicha xiroj solig'i hosilning 1/3 qismidan 1/7 qismigacha miqdorda belgilanganligi, lekin amalda 1/2 qismi olinganligi ko'rsatilgan[16].

I.I. Geyyer amirlikda yerdan foydalanish shakli: mulki-hur, mulki-ushr, mulki-xiroj va vaqfga bo'linganini keltirib o'tgan. Mulki-hurdan soliq olinmagan, mulki-ushrdan hosilning 1/10 qismi, mulki-xirojdan 1/8 dan 1/5 qismigacha, mulki vaqfdan 1/3 qismi miqdorida soliq undirilgan[17]. Arxiv hujjatlarida esa vaqf yerlaridan soliq hosilning 1/3 qismidan 1/10 qismigacha miqdorda yig'ilgani qayd qilingan[18].

Shuni alohida ta'kidlash joizki, amirlikda hukumat tomonidan joriy qilingan soliqlarni yig'ib olishda uning miqdoriga amal qilinmagan. Bekliklarda soliq va qo'shimcha to'lovlar yig'ish bir xil tartibda joriy etilmagan. Masalan, Sherobod bekligida xiroj solig'i bahorgi ekindan hosilning 1/5 qismi, kuzgi ekinlardan 1/4 qismi miqdorda undirilgan. Bundan tashqari, bog'lardan 13 tanga, beda ekinidan 6 tanga, sabzavotlardan 12 tangadan qo'shimcha tanob solig'i ham olingan. Shuningdek, 4 man g'alla o'rniga 8 man[19], ya'ni ikki baravar ko'p yig'ilgan(20(.

Denov bekligida XIX asrning 80-yillarida har bir qo'sh yerdan 6 man g'alla miqdorida xiroj, ya'ni hosilning $1/6$ qismi olingan[21].

Shuni alohida ta'kidlash joizki, amirlikda fuqarolar hashar va qo'rg'on mardikoridan tashqari yana bir qancha majburiy mehnatlarga ham jalb qilingan. Masalan, "begori" – yangi qurilish ishlariga, "taklifot" – har xil ishlarga, masalan, zamindorning yeriga ishlov berish, "lashkari" – urush vaqtida boylarning yerlarini qo'riqlashga, "shikori" – zodagonlarning ovga chiqishiga yordam berish, "saqlav" [22] dehqonlar yiliga ikki-uch marta bek qal'asi, yo'llar, omborlar va ko'priklarni qo'riqlashga jalb qilingan. Shunday qilib mamlakatning oddiy fuqarolari soliq va qo'shimcha to'lovlardan tashqari yil bo'yi bek, amlokдор, yirik yer egasi va din peshvolarning foydasi uchun ishlashga ham mahkum qilingan.

Buxoro hukumati tomonidan joriy qilingan asosiy soliqlardan zakot, xiroj, aminona, jiz'yalar to'g'ridan-to'g'ri amir xazinasiga kelib tushgan. Zakoti chakana, qo'sh puli, yaksara, osiyo puli, objuvoz puli, tanob puli, alaf puli, boj, mirobona, kafsana kabi soliqlar amirlik miqyosida qancha miqdorda yig'ilganligini aniqlash imkonsiz. Chunki qo'shimcha soliqlarni beklar o'zlari bilganicha belgilagan. Bu soliqlarning bir qismi mahalliy amaldorlar foydasiga, qolgani esa umumiy soliqlar bilan birgalikda amirlik xazinasiga yuborilgan[23].

Hukumat tomonidan joriy qilingan soliq va to'lovlar to'g'risidagi statistik ma'lumotlar yetarli va aniq bo'lmaganligi uchun amirlikda yiliga qancha miqdorda soliqlar yig'ilganligini aniqlashning deyarli imkoni yo'q. Manba va ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar bir-biridan farqlansa-da, amirlik bo'yicha yig'ilgan yillik soliq miqdori to'g'risida ma'lum bir umumiy tasavvurga ega bo'lishimiz mumkin.

XIX asr oxirida beklıklardan yiliga amir xazinasiga quyidagi miqdorda zakot solig'i kelib tushgan: Hisordan 270 ming rubl, Sariosiyodan 165 ming rubl, Qorategindan 75 ming rubl, Darvozdan 30 ming rubl, Ko'lobdan 150 ming rubl, Baljuvondan 150 ming rubl, Qo'rg'ontepadan 60 ming rubl, Qabodiyondan 75 ming[24] rubl, G'uzordan 140 ming rubl, Denovdan 75 ming rubl, Karkidan 38

ming rubl, Shahrizabdan 135 ming rubl, SHerobodan 100 ming rubl, Miyonkol va Xarkanruddan 65 ming rubl[25].

XULOSA

XIX asrning ikkinchi yarmi–XX asr boshlarida ham amirlikning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida qoloqlik, turg'unlik va ijtimoiy adolatsizlik saqlanib qolgandi. Mamlakat fuqarolarining turmush darajasi past bo'lib, yerga egalik qilishda o'rta asr an'analari davom etib kelgan. Markaziy va mahalliy hokimiyat mulozimlari, harbiy amaldorlar, din peshvolari hamda yirik yer egalari aholining yuqori tabaqasini tashkil qilgan. Ular ijtimoiy jihatdan katta huquq va imtiyozlarga ega edilar. Aholining quyi tabaqasini soliq to'lovchi dehqon, hunarmand va chorvadorlarni tashkil qilib, ular mamlakat ijtimoiy hayotida hech qanday imtiyozga ega emasdilar.

Amirlikda mahalliy amaldorlar davlat yerlarini boy dehqonlarga sotishi, kambag'al dehqonlarning yerlarini esa arzon narxlarda tortib olishi oddiy holga aylangan. Yirik yer egalari, o'ziga to'q boylar yersiz va kam yerli dehqonlarga yerlarni ijaraga berishi davom etgan. Rossiya imperiyasi amirlikni o'ziga bo'ysundirganidan so'ng mamlakatda iqtisodiy rivojlanish ko'zga tashlansa-da, bu aholining turmush tarzini ijobiy tomonga o'zgartirmadi. Aksincha, amirlikda yashovchi fuqarolar endilikda ikki tomonlama jabr-zulm ostida qoldilar. Aholi, avvalo, markaziy va mahalliy hokimiyat vakillari hamda din peshvolari tomonidan ezilgan bo'lsa, boshqa tarafdin rus hukumati va kapitalistlari tomonidan jabrsitamga yo'liqqan.

Mamlakatda hukumat tomonidan joriy qilingan soliqlar bilan bir qatorda mahalliy amaldorlar, bek va amlodkorlar chorvador, hunarmand, dehqon va savdogarlarni qo'shimcha to'lovlar to'lashga majburlab kelgan. Soliqlarni yig'ib olishda uning shariatda belgilangan miqdoriga amal qilinmagan hamda beklklarda soliq va qo'shimcha to'lovlar bir xil tartibda yig'ilman. Mahalliy va yuqori lavozimda ishlovchi mulozimlar yig'ilgan soliq miqdorini hujjatlarda to'liq ko'rsatmay, muntazam talon-toroj qilib kelgan.

XIX asrning ikkinchi yarmi–XX asr boshlarida amirlik aholisi markaziy va mahalliy hokimiyatga qarshi norozilik chiqishlarini amalga oshirdi va bu g‘alayonlar tartibsiz (stixiyali) ravishda kechdi. G‘alayon rahbarlari, tashkilotchilari iqtisodiy talablar bilan cheklanib, siyosiy talablar qo‘yish ularning xayoliga ham kelmagan, g‘alayonlar rejasiz va dastursiz ro‘y bergan, mohiyatan soliq va qo‘shimcha to‘lovlarni kamaytirishga qaratilgan bunday norozilik harakatlari kuch bilan bostirilgan, g‘alayon ishtirokchilari esa shafqatsiz jazolangan. Mahalliy aholi va dehqonlar amirga adolat so‘rab qanchalik murojaat qilmasin, ularning shikoyatlari deyarli o‘rganilmagan. Amir va yuqori lavozimdagi amaldorlar aholining shikoyat va e‘tirozlarini o‘rganib, mahalliy amaldorlarini tartibga solish o‘rniga, dehqonlarni yalqovlik, ishyoqmaslik va ig‘vogarlikda ayblab, ularni turli xil usullar va yo‘llar bilan jazolab kelgan.

IQTIBOSLAR / ЧОККИ / REFERENCES

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning islom.uz saytidagi chiqishlaridan birida aynan sudxo‘rlik masalasidagi javoblarida bu masalaga ochiq oydin to‘xtalib o‘tilgan. Uning aytishiga ko‘ra “sudxo‘rlik qarzning ustiga foyda olishdir”. Qarang: islom.uz
2. Ribo so‘zi “ziyoda” ma’nosini anglatadi.
3. Маджлисов А. Аграрные отношения в восточной Бухаре в XIX-нач. XX века. - Душанбе-Алма-Ата: Ирфон, 1967. – С. 217.
4. Ochildiyev F.B. Surxon vohasi bekliliklaridagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar. T.: ABU MATBUOT-KONSALT. 2008.– B. 143.
5. XIX–XX asr boshlarida Buxoro amirligida 1 man 2 tanob yerga teng bo‘lgan.
6. Маджлисов А. Аграрные отношения в Восточной Бухаре XIX–нач. XX в. – С. 226.
7. O‘zMA, I 3-jamg‘arma, 2-ro‘yxat, 78-ish, 263-281 varaqlar.
8. Shodiyev J.M. Buxoro amirligining tashkil topishi va davlat tuzumi: Yuridik fanlar nomz. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. – Toshkent, 2008. – B. 127.

9. Маджлисов А. Аграрные отношения в Восточной Бухаре XIX–нач. XX в. – С. 234.
10. Ochildiev F.B. Social Relationship And Tax Types In The XIX – XX entury In Bukhara Emirate. International Journal Of Scientific & Technology Research Volume 9, Issue 01, January 2020. – P. 723.
11. Хакимова К.З. Крестьянство Бухарского эмирата в конце XIX – начале XX вв. – Ташкент: Фан, 1991. – С. 28.
12. Соболев Л.Н. Географические и статистические сведения о Зерафшанском округе // Записки императорского русского географического общества. – СПб., 1874. Т. IV. – С. 274
13. Хорошхин А.П. Сборник статей, касающихся до Туркестанского края. – СПб., 1876. – С. 125
- 14 Кун А.Л. Очерки Шагрисебзского бекства // ЗИРГО по отделению этнографии. – СПб., 1880. Т. IV. – С. 230.
- 15 Искандаров Б.И. Восточная Бухара и Памир во второй половине XIX в. Ч. II. - Душанбе: АН.Тадж. ССР, 1963. – С. 58
16. O‘zMA, I 2-jamg‘arma, 1-ro‘uxat, 251-ish, 100-varaq.
17. Гейер И.И. В верх по Пянджу. «Русский Туркестан». 1899. – С. 5.
18. O‘zMA, I 2-jamg‘arma, 1-ro‘uxat, 251-ish, 112-varaq.
19. Man og‘irlik o‘lchovi bo‘lib, u botmonga teng bo‘lgan. Bir man Buxoroda 8 pudga, SHerobod va Boysunda 9 pudga, Qabodiyon va Qo‘rg‘ontepada 16 pudga, Ko‘lobda 17 pudga teng bo‘lgan.
20. O‘zMA, I 126-jamg‘arma, 1-ro‘uxat, 1267-ish, 76-varaq.
21. Маджлисов А. Аграрные отношения в Восточной Бухаре в XIX–нач. XX века ... – С. 198.
22. Маджлисов А. Аграрные отношения в Восточной Бухаре ... – С. 189.
23. Грулев М. Аму - Дарья.-Ташкент, 1900. – С. 65.
24. Искандаров Б.И. Восточная Бухара и Памир во второй половине XIX в ... – С. 76.
25. O‘zMA, I 126-jamg‘arma, 1-ro‘uxat, 1154-ish, 46-varaq.